

KONNOTATIV MA'NONING TARJIMA JARAYONIDAGI O'RNI

Norquvvatova So'g'diyona

Qarshi davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti

2-kurs talabasi

Sugdiyonanorquvvatova@gmail.com

+998947561303

Yo'ldoshev Dilmurod

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17852839>

Annotatsiya: Ushbu maqolada konnotativ ma'noning tarjima jarayonidagi o'rni va uni uzatish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Konnotatsiya til birliklarining faqat lug'aviy (denotativ) ma'nosidan tashqari, ularning emotsional-ekspressiv, baholovchi va stilistik yukni ham o'z ichiga oladi. Tarjima jarayonida aynan shu qo'shimcha ma'no qatlamini saqlab qolish tarjimon uchun eng muhim va murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada konnotativ ma'noning madaniy kontekst bilan uzviy aloqasi, milliy va individual konnotatsiyalarning yuzaga kelishi hamda ularni tarjimada ifodalash usullari yoritiladi. Turli badiiy matnlardan olingan misollar asosida leksik tanlov, ekspressivlikni saqlash va uslubiy moslik masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, konnotativ ma'noni muvaffaqiyatli tarjima qilish faqat til ekvivalentlarini topish bilan cheklanmay, balki madaniyatlararo farqlarni chuqur anglash va muallifning badiiy niyatini to'g'ri talqin qilishni talab etadi. Mazkur maqola tarjimonlar, filologiya talabalari hamda tarjima nazariyasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: konnotativ ma'no, denotativ ma'no, tarjima nazariyasi, leksik birlik, emotsional-ekspressivlik, stilistik yuklama, madaniy kontekst, ekvivalentlik, badiiy tarjima, semantik farq, madaniyatlararo tafovut, tarjima strategiyasi, pragmatik ma'no, obrazlilik, muallif niyati.

Abstract: This article analyzes the role of connotative meaning in the translation process and the issues related to its transmission. Connotation encompasses not only the lexical (denotative) meaning of language units but also their emotional-expressive, evaluative, and stylistic nuances. Preserving this additional layer of meaning during translation is considered one of the most important and challenging tasks for the translator. The article highlights the close connection between connotative meaning and cultural context, the emergence of national and individual connotations, and the methods of conveying them in translation. Based on examples taken from various literary texts, the issues of lexical choice, preservation of expressiveness, and stylistic adequacy are discussed. According to the research findings, successfully translating connotative meaning is not limited to finding linguistic equivalents; it also requires a deep understanding of intercultural differences and an accurate interpretation of the author's artistic intent. This article holds both theoretical and practical significance for translators, philology students, and researchers engaged in translation studies.

Keywords: connotative meaning, denotative meaning, translation theory, lexical unit, emotional-expressiveness, stylistic load, cultural context, equivalence, literary translation, semantic difference, intercultural divergence, translation strategy, pragmatic meaning, imagery, author's intent.

Аннотация: В данной статье анализируется роль коннотативного значения в процессе перевода и проблемы, связанные с его передачей. Коннотация включает в себя не только лексическое (денотативное) значение языковых единиц, но и их эмоционально-экспрессивный, оценочный и стилистический оттенок. Сохранение этого дополнительного смыслового слоя при переводе является одной из наиболее важных и сложных задач переводчика. В статье раскрываются тесная связь коннотативного значения с культурным контекстом, возникновение национальных и индивидуальных коннотаций, а также способы их передачи в переводе. На основе примеров из различных художественных текстов обсуждаются вопросы лексического выбора, сохранения экспрессивности и стилистического соответствия. Результаты исследования показывают, что успешная передача коннотативного значения требует не только поиска языковых эквивалентов, но и глубокого понимания межкультурных различий, а также правильной интерпретации художественного замысла автора. Настоящая статья имеет теоретическую и практическую ценность для переводчиков, студентов-филологов и исследователей, занимающихся теорией перевода.

Ключевые слова: коннотативное значение, денотативное значение, теория перевода, лексическая единица, эмоционально-экспрессивность, стилистическая нагрузка, культурный контекст, эквивалентность, художественный перевод, семантическая разница, межкультурные различия, переводческая стратегия, прагматическое значение, образность, авторский замысел.

KIRISH

Til inson tafakkurining ifoda vositasi bo'lib, har bir tilde so'zlarning denotative va konnotativ ma'nolari mavjud. Denotativ ma'no so'zning asosiy, lug'aviy ma'nosini bildirsa, konnotativ ma'no so'zning hissiy, baholovchi yoki madaniy qo'shimcha ma'nosini ifodalaydi. Tarjima jarayonida ushbu ikki qatlamni, ayniqsa konnotativ ma'noni saqlash tarjimon oldidagi eng nozik va murakkab vazifalardan biridir. Zamonaviy Britaniya adabiyotining o'zbek tiliga tarjimalarida bu muammo yanada yaqqol namoyon bo'ladi, chunki madaniy tafovutlar, idiomatic ifodalar va uslubiy farqlar ko'pincha konnotativ ma'nolarning yo'qolishiga yoki o'zgarishiga olib keladi.

Konnotatsiya–bu til birliklarining hissiy-emosional, baholovchi, ekspressiv va uslubiy komponentlarini o'z ichiga oluvchi semantic qatlamdir. Masalan, ingliz tilidagi “home” so'zi “uy” degan denotative ma'noga ega bo'lsa-da, unda ilqlilik, xavfsizlik, tinchlik, oila bag'ri kabi konnotativ ma'nolar mujassam. Bu so'zni o'zbek tiliga oddiy “uy” shaklida tarjima qilish yetarli emas, chunki konnotativ qatlam to'liq yo'qoladi. Shuning uchun tarjimon “ona bag'ridagi uy”, “oil qo'rg'oni” kabi hissiy jihatdan boy ifodalarni tanlashi mumkin. Yoki “freedom” so'zi ham ingliz tilida individual erkinlik va huquqiy mustaqillikni anglatadi, o'zbek tilida u ko'proq jamoaviy qadriyat, mustaqillik va ijtimoiy erkinlik konnotatsiyasiga ega bo'ladi. Tarjimonning strategik yondashuvi konnotativ ma'nolarning saqlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Venuti tomonidan ilgari surilgan “domestikatsiya” va “foreignizatsiya” strategiyalari bu borada muhim nazariy asos hisoblanadi. Domestikatsiya (mahalliyashtirish) – bu aslyatdagi konnotatsiyani o'zbek madaniy kontekstiga moslashtirish, o'quvchiga tushunarli qilishdir. Masalan, “English breakfast” ifodasi so'zma-so'z “ingliz nonushtasi” deb tarjima qilinsa, o'zbek o'quvchisi uchun u begona tushuncha bo'lib qoladi. Tarjimon esa uni “to'kin nonushta” yoki “an'anaviy nonushta”

kabi madaniy jihatdan mos variant bilan almashtiradi. Biroq bu holda asl madaniy rang yo'qoladi. Foreignizatsiya (chetlashish) strategiyasi esa, aksincha, asl konnotatsiyani saqlaydi, lekin o'zbek o'quvchisiga notanish elementlarni olib kiradi, masalan, "English breakfast" ni asl holicha qoldirish orqali o'quvchida madaniy qiziqish uyg'otadi.

ASOSIY QISM

Tarjimada ekvivalentlikni ta'minlash deganda, ma'noni to'g'ri yetkazish bilan birga, konnotativ ranglarni ham saqlab qolish tushuniladi. Bu borada bir necha samarali usullar mavjud: sinonimik almashtirish, tavsifiy tarjima, kontekstual moslashtirish va pragmatik kompensatsiya. Masalan, "bitterirony" iborasini "achchiq kinoya" deb tarjima qilish grammatik jihatdan to'g'ri, ammo u ingliz madaniyatidagi "bitter" so'zining hissiy keskinligini to'liq ifodalay olmaydi. Tarjimon bu o'rinda "achchiq istehzo bilan" yoki "keskin kinoya" kabi ifodalarni tanlashi mumkin. Shuningdek, "to carry the cross" iborasi xristian madaniyatidagi diniy konnotatsiyaga ega. O'zbek tilida bu ifoda "og'ir yukni ko'tarish", "sabr bilan chidash" tarzida berilishi mumkin, bu esa ma'no jihatdan yaqin, lekin madaniy konnotatsiyani qisman o'zgartiradi. Demak, konnotativ ekvivalentlikni ta'minlash tarjimonning madaniy kompetensiyasi va ijodkorligiga bog'liq. I.Gofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov fikricha, "matnda berilgan ma'no so'zlarning dennotativ, konnotativ, stilistik, gaplarning sintaktik, gaplardan kattaroq birliklarning sintaktik ma'nolari, so'z va so'z birikmalarining supersegment hamda leksik-semantik ma'nolari o'rtasidagi bevosita aloqalarga asoslanadi. Har bir til leksik-grammatik maydonining maxsus strukturasiga egaligi bilan harakterlanadi, o'zining leksik, morfologik hamda sintaktik tizimiga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda tarjimada ifoda usuli bir-biridan farq qiladi, ma'no esa yuqorida tilga olingan yaruslarda saqlanishi mumkin. Shuning uchun ikki tilning, ya'ni xorijiy til va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi, biroq bu tarjima qilish uchun yetarli emas. Til xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon tarjima nazariyasida ishlab chiqilgan bir qator prinsiplarini yaxshi bilish bilan birga yaxshi ishonchli malakaga ham ega bo'lishi lozim. Tarjima nazariyasidagi prinsiplar lingvistik hamda ekstralingvistik omillarga asoslanadi". Bu fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimani yaxshi amalga oshirish uchun nafaqat ikkita tilni yaxshi bilish, balki tarjima qonuniyatlarini ham o'rganish va yetarli darajada tajribaga ega bo'lishi zarur. Chunki bu jarayon bitta til imkoniyatlarini bilish bilan kifoyalanmaydi. Ikkala til xususiyatlari, tarjima prinsiplari, tajriba imkoniyatlari ustivordir. "Tarjima jarayonida tarjimon ikki tilning tipologik xususiyatlarini doim nazarda tutishi lozim. Chunki leksik jihatdan ifodalangan ayni fikr boshqa tilda grammatik vositalar bilan berilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ingliz tili german tillari oilasiga mansubligi, undagi so'z tartibi, birikmalarning xususiyatlari, zamonning qo'llanishi,

majhul nisbatining keng tarqalganligi, ko'p ma'noli so'zlarning ishlatilishi, so'zlarning sinonimik qatorda stilistik jihatdan farq qilishi va shu kabilarni hisobga olish lozim va o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida esa o'zbek tilining turkiy tillar oilasiga mansubligini, so'z tartibi ingliz tiliga nisbatan farq qilishini, zamonlar ingliz tiliga nisbatan ozroq sonni tashkil etishini, so'z ma'nolari o'zbek tilida kam va ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanishi, o'zbek tili leksik qatlamida arab, fors, mo'g'ul so'zlarining mavjudligi kabi holatlarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari so'z qatlamlarining stilistik jihatdan o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini inobatga olish lozim. Matnning qaysi janr va qaysi uslubga xosligini aniqlash ham

tarjimada adekvatlikka erishish imkonini beradi. Matnlarning stilistik va janr jihatdan farq qilishini hisobga olish adekvatlikdan tashqari soʻz va iboralarning matn yaratish xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Har bir usul va har bir janrda qoʻllanadigan soʻz, soʻz birikmasi, gap tuzilishini bilish muhim ahamiyatga ega”.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida semantic muvofiqlik va konnotativ maʼnolarning saqlanishi asliyatning uslubiy, hissiy va madaniy jihatlarini toʻliq yetkazishda muhim omil hisoblanadi. Tarjimon soʻzning faqat lugʻaviy maʼnosini emas, balki uning konnotativ, pragmatic va stilistik xususiyatlarini ham tahlil qilishi lozim. Har bir til oʻziga xos madaniy fon va hissiy tusga ega boʻlgani uchun, konnotatsiyani toʻliq aks ettirish uchun tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlar aro sezgirlikka ham ega boʻlishi zarur. Zamonaviy tarjimashunoslikda bu masala tarjimaning estetik qiymatini oshiruvchi asosiy omil sifatida eʼtirof etiladi. Ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjimada keng foydalaniladigan usullar eng samaralilari hisoblanadi. Bunday usullarni qoʻllashda tarjimonlar asosan kontekstning oʻrniga, asar muallifining mazkur til birliklarini ishlatishdan koʻzlagan maqsadiga eʼtibor berish talab qilinadi. Bir necha tilshunoslarning fikricha, tarjima qilayotganda har bir soʻzni oʻgirib chiqish shart emas, asosan maʼnoni saqlab qolsa kifoya. Lekin, fikrimizcha bunday holatda matnni serjiloligi va jozibadorligiga putur yetadi. Ammo yuqorida taklif tilgan yechimlar orqali asar tarjima qilish ancha samarali va mazmunli boʻladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.- 199 b
2. Otamirzayeva S, Yusupova M .Oʻzbek tili. – Toshkent: 2004.
3. Rajabov.N.N. Oʻzbek va ingliz tillarida vokalizm sistemasining fonologik jixatdan
4. chogʻishtirma tadqiqi. – Toshkent: 2018.
5. Raxmatullayev. Sh .Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent: 2006. -83-87b.
6. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent: 2005. – 143b.
7. Gʻofurov I, Moʻminov Oʻ, Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy oʻquv yurtlari uchun
8. oʻquv qoʻllanma . –Toshkent: Tafakkur-Boʻstoni, 2012. – 216 b.
9. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
10. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.
11. Hatim, B., & Mason, I. (1990). Discourse and the Translator. Longman.
12. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
13. Roʻziyeva M. R. (2024). Difficulties in translating fiction and their solutions. Xorazm Maʼmun akademiyasi axborotnomasi.
14. Roʻziyeva M. R. (2024). History and problems of translation of English literary works into the Uzbek language. OʻzMU xabarlar jurnali.